



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

*«Agrokimyo, tuproqshunoslik va
o'simliklarni himoya qilish»
kafedrası
5410300-O'simliklar himoyasi va
karantin ta'lim yo'nalishi
bakalavriat bitiruvchisi*

RASULOVA MAFTUNA ANVAR QIZINING

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

***Mavzu: G'o'zaning so'ruvchi zararkunandalari va unga
qarshi kurash choralari***

Ilmiy rahbar, q.x.f.n. assistent _____ Sh.A.Hazratqulov

***Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo,
tuproqshunoslik va o'simliklarni
himoya qilish kafedrası yig'ilishi-
da muhokama qilindi va DAK himoya-
siga tavsiya etildi. Kafedra mudiri,
professor _____ F.Hoshimov
«___» _____ 2015 yil
Bayonnoma № _____***

***Agronomiya fakulteti
dekani, dotsent***

_____ D.Normurodov

«___» _____ 2015 y

SAMARQAND-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1. ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
1.1. G‘o‘zaning asosiy zarakunandalari va ularning biologiyasi	6
1.3. Poliz biti va unga qarshi kurash choralari	13
1.4.G‘o‘za zararkunandalariga qarshi biologik va uyg‘unlashgan kurash choralari.....	15
2. TADQIQOT METODIKASI, OB‘EKTI VA O‘TKAZISH SHAROITI.....	21
2.1. Tajriba o‘tkazish joyi va uning iqlim sharoiti.....	21
2.2. Tajriba sxemasi va metodikasi	23
2.3.Tajribada ekilgan g‘o‘zaning “AN-Bayavut-2” navi tavsifi.....	24
2.4. Tajribada g‘o‘za o‘stirish agrotexnologiyasi	25
2.5. G‘o‘za shirasi biologiyasi.....	28
3. TADQIQOT NATIJALARI.	31
3.1. Kimyoviy vositalarning va g‘o‘za shirasining rivojlanish dinamikasi.....	31
3.2. Tajriba maydonida g‘o‘za shirasiga qarshi qo‘llanilgan vositaning biologik samaradorligi	33
3.3. Kimyoviy vositalarning g‘o‘za hosildorligiga ta’siri.....	35
3.4. G‘o‘za o‘stirishda kimyoviy vositalar qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi.....	37
4. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati. Kimyoviy vositalarni ishlatishda ko‘riladigan xavfsizlik choralari.....	39
Xulosa va takliflar.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	49
Ilovalar (internet ma’lumotlari).....	54

Kirish

Respublikamiz milliy daromadi 1/3 qismi paxta tolasini hisobiga yaratiladi. Respublikada 2014 yilda 3350,0 ming tonna paxta xom-ashyosini tayyorlash rejalashtirilib, amalda 3400,3 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlanib, reja 101,5 foizga bajarildi.

Respublika bo'yicha o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi 26,5 s/ga ni tashkil etdi. Hisobot yilida respublika bo'yicha fermerlarning 44,5 foizi (jami paxta ekin maydonlarining 45,4%) 25–35 s/ga hosildorlikka erishgan bo'lsa, gektaridan 40 sentnerdan ortiq hosil olgan fermer xo'jaliklari soni 2547 tani (6,4 %) tashkil qildi.

G'o'za o'simligi hashorat va kasalliklarga tez chalinuvchan va tez kunlarda zararlanganligini bildiradigan o'simliklar toifasiga kiradi. SHuning uchun uni zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash choralarini qo'llab turish kerak, aks xolda kutilgan paxta hosiliga erishib bo'lmaydi. G'o'za mamlakatimizning asosiy strategik ekinlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida paxta etishtirishda eng ko'p zarar keltiradigan omillardan biri bu g'o'za zararkunandalari hisoblanadi. Xatirchi tumanida g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashishni o'rganish tuman paxtachiligidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. CHunki Xatirchi tumani Navoiy viloyatida, qolaversa O'zbekistonda asosiy paxta etishtiradigan tumanlardan biri hisoblanadi va paxta etishtirishda qo'za zararkunandalariga qarshi kurashda katta mehnat va sarf xarajatlar talab etiladi.

G'o'za zararkunanda va kasalliklar bilan qattiq shikastlanadigan o'simliklar qatoriga kiradi. Uni bir qator zararkunandalar shikastlaydiki, ularga qarshi kurash o'z vaqtida o'tkazilmasa, anchagina qismini zararkunandaga edirib qo'yish mumkin. Respublikamizda g'o'za ekiladigan maydonlarda g'o'zani o'sishi va rivojlanish davrida 210 turdan ortiq zararli xashoratlar rivojlanadi va zarar keltiradi. Almuxammedov va boshqalar.

Ko'pchilik olimlarning fikricha g'o'za asosiy zararkunandalar hisobiga yil davomida 55-60% hosilni yo'qotadi. O'simliklarni ximoya qilish tadbirlarini unumli va samarali amalga oshirish g'o'za hosilini zararkunanda va kasalliklardan

saqlashning asosiy omillardan biri hisoblanadi. Endilikda g'ozani zararkunanda va kasalliklardan umumiy ximoya qilish sistemasi ham tubdan o'zgarmoqda

Bunda diqqat e'tibor tabiatdagi foydali hashoratlarga qaratilmoqda. Ko'p yillar davomida surunkasiga zararkunandalarga qarshi qo'llanilgan kimyoviy vositalar tabiatdagi turlari o'rtasidagi muvozanatni buzilishiga sabab bo'lmoqda, hamda tabiatni ifloslanishiga olib kelmoqda.

Xozirgi paytda zararkunandalarga qarshi kurashda uyg'unlashgan himoya usuliga katta e'tibor bermoqda. Bu ximoya uslubida zararkunandalarning sonini kamaytirish bilan birgalikda tabiatdagi xashoratlarning rivojlanishiga va o'simliklarning yaxshi o'sishiga sharoit yaratib beriladi.

Respublikamizda o'simliklarni ximoya qilish strukturasi tuman, viloyat, respublika tashkilotlaridan iboratdir, ya'ni qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshida tashkil topgan o'simliklarni ximoya qilish va agrokimyo markaziga xar bir viloyatning shunday tashkilotlari, ularga esa o'z navbatida xar bir tuman tashkilotlari biriktirilgan.

O'zbekistonda g'ozaning har xil zararkunandalari keng tarqalgan bo'lib, o'rgamchakkanalar, shiralar, bitlar ham shular jumlasidandir. Natijada g'ozaning nihollarini barglari buralib, rangi o'zgaradi va to'kila boshlaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi Xatirchi tumanida g'ozaning bitiga qarshi kurash bo'yicha olib borilgan dala tajribalari asosida yozilgan.

1. ADABIYOTLAR SHARHI

G'ozaning asosiy zararkunandalari va ularning biologiyasi

G'oz zararkunandalari paxtachilikda eng ko'p zarar keltiradigan omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida g'ozaga zarar keltiruvchi 210 dan ortiq zararkunandalar aniqlangan.

Bulardan biri shiralar g'oz chinqarganda to hosil yig'ib olingunga qadar g'ozada rivojlanadi, zarar keltiradi. Natijada o'simlik o'sishidan va rivojlanishidan to'xtaydi, barglar bujmayib to'kiladi va oxiri hosildorlik keskin kamayadi.

Agar o'z vaqtida shiralarga qarshi kurash chorasi olib borilmasa, ular g'oz hosildorligini 30-50 % gacha ayrim xollarda yosh nixollarni umuman yo'qolishiga olib keladi. YAxontov (1931), Davletshina (1953), Narziqulov (1981), A.A.Kan (1988).

SHiralarning zararlilik darajasi ularning o'simliklardagi soni va o'simlikka tushgan vaqti hisoblanib, oxirgi natija hosildorlikni o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Xozirgi paytda ko'pchilik olimlar tomonidan shiralarning biologiyasi, rivojlanish dinamikasi sistematikasi yaxshi o'rganilgandir. Nikobunkley (1934), Nibskiy (1934), Davletilna, SHurovskaya (1955), Xodotevich (1978), Narziqulov (1985).

V.P.Nebkiy (1942) ma'lumot berishicha, O'zbekiston sharoitida beda shirasi 52 botanik oilaga mansub bo'lgan o'simliklarda yashab, rivojlanib zarar keltiradi. Ular zarar keltirgan o'simliklar o'sish va rivojlanishdan to'xtaydi.

Davletinka, Avanesova (1980) kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, beda shirasi 20-26⁰S xarorat va 60-70% nisbiy namlikda juda yaxshi rivojlanadi.

G'ozada beda shirasining 7 avlodi rivojlanadi va zarar keltiradi. Umuman, mavsum davomida 10-18 avlod berib rivojlanadi.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, beda shirasi g'ozada ko'p yashaydi. Lekin shu davr darajasi ko'pchilik olimlar tomonidan o'rganilgandir.

Xozirgi paytda O'zbekistonda shiralarning zararlilik iqtisodiy chegarasi 100 bargda 25-30 donada shira yoki shiralar o'simlikda 3-5 % tarqalgan bo'lganda hisoblanadi. Alimuxammudov va boshqalar (1982).

Ko'pchilik olimlarning ta'kidlashicha, g'o'za gullash davrida g'o'za katta shirasi zarar keltirish natijasida gullarning changlanish xususiyati yo'qotiladi. Stepansev (1949), Narziqulov (1954).

Stepansev (1949) ta'kidlashicha, g'o'za katta shirasi 23 S⁰ xarorat va 58% nisbiy namlikda juda yaxshi rivojlanadi. G'o'za katta shirasi zarar keltirish natijasida shonalar to'kilib ketadi.

Poliz shirasi birinchi bo'lib, 1855 yilda SHimoliy Amerikada mustaqil tur sifatida topilgan. O'rta Osiyoda esa 1910 yil V.I.Vasilyov tomonidan birinchi bo'lib aniqlangan.

Poliz shirasi xammaxo'r zararkunanda hisoblanib, 25 botanik oilaga mansub bo'lgan 46 turdan ortiq o'simlikda rivojlanadi. Davletshina (1952).

Poliz shirasi g'o'za unib chiqqandan, hosil yig'ib olguncha kuchli zarar keltiradi. U birinchidan, g'o'zaning yosh nihollariga zarar keltirsa; ikkinchidan, yozgi davrda g'o'za sharbatini so'rish natijasida hosil organlarini (shona, gul, ko'sak) to'kilishiga olib keladi; uchinchidan, kuzda esa shiralar ajratgan suyuqlik ta'sirida tola ifloslanadi va buziladi.

G'o'za katta shirasi shiralar ichida eng kattasi hisoblanadi. Bu shiraning aktiv rivojlanishi, g'o'zani yoppasiga gullash davriga to'g'ri keladi. Stepansev (1949), Narziqulov (1954).

Ko'pchilik olimlarning kuzatishlariga ko'ra, g'o'za dalalarida shiralarining 40 dan ortiq tabiiy kushandalari mavjuddir. Davetshina (1972), Alimuxammedov (1978)

Mirzaalieva X.R. (1986) ta'kidlashicha, g'o'za shonalash davrida laboratoriya sharoitida ko'paytirilgan oltinko'zni etuk xashoratidan shiralarga qarshi 1/100 nisbatda qo'llash juda yaxshi samara beradi.

Alimuxammedov S.N., Xadjaev T.SH. (1991) ta'kidlashicha, Toshkent viloyatida g'ozani eng ko'p poliz shirasi 75-80% zararlaydi, beda shirasi 15-20% zararlaydi. G'oz katta shirasi esa 5-10 % zararlashi aniqlangan.

Xozirgi paytda bu shiralarga qarshi zamonaviy agrotexnik biologik va kimyoviy kurash choralari qo'llanilmoqda. Agrotexnik kurash choralarini shiralarning sonini kamaytirishda muxim o'rin tutadi.

Xozirgi paytda g'ozani fosforli, kaliyli o'g'itlar bilan barg satxidan oziqlantirish, g'oz shirasini kamaytirishda eng samarali quyosh usullaridan hisoblanadi. Bu yo'nalish bo'yicha ko'pchilik olimlar izlanishlar olib borilmoqdalar.

Xushvaqtov Q.X.(1994) ta'kidlashicha, g'ozadagi shiralarni zararli iqtisodiy chegarasi (ZICH) quyidagicha: g'oz chinbang chiqargandan to shonalash davrigacha bir o'simlikdagi 12-18 dona yoki bir bargdagi 1,0-1,5 dona shira bo'lganda g'oz gullash va hosil tugish davrida bir o'simlikda 10 va 25 dan ortiq shira yoki bir bargdagi 1,0-1,5 donada g'ozaga katta zarar keltirishi mumkin.

A.A.Kan K.Xushvaktov (1994) kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, g'oz shiralarga qarshi qo'llaniladigan kurash usulini xamisha takomillashtirilib borishi kerak. Bunday usullar eng asosiy va samarali hisoblanadi.

M.T.Arslonov (2005) ma'lumotiga ko'ra, oltinko'z tuxumlari shira tarqalgan dalaga oltinko'z imagalari esa, 3 litrli bankalarga solib dalaga uchiriladi.

M.T.Arslonov (2005) ta'kidlashicha g'oz bitlari o'simlikning o'sish nuqtasi va barglaridan shirasini so'rib, o'sishini 2-3 xaftaga orqaga suradi, g'ozani xolsizlantiradi. G'oz bitlari qanotli va qanotsiz shakllarda uchraydi, ular uchun qanchalik sharoit yaxshi bo'lsa, ular ko'proq qanotsiz ekinlarga ko'chadi.

YUqoridagi adabiyotlar sharxidan ko'rinib turibdiki, g'oz shiralarning biologiyasi, rivojlanishi ularga qarshi qo'llanadigan kurash choralari olimlar tomonidan yaxshi o'rganilgan.

Adabiyotdagi ma'lumotlarga qaraganda g'oz zararkunandalarini o'rganishga asos solgan izlanuvchi olimlar V.N. YAkubovskiy (1921); V.P.

Nevskiy (1929); R.O.Olimjanov (1972); M. Uspenskiy (1970); S.N. Alimuhamedov (1978).

SHunday qilib ular o'z vaqtida shiralarga qarshi kurash choralari olib borilmasa, ular g'o'za hosildorligini 30-50% gacha, ayrim xollarda umuman yo'qotishga olib keladi.

SHiralarning zararlik darajasi ularning o'simliklardagi soni va o'simlikka tushgan vaqti hisoblanib, oxirgi natija hosildorlikni o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Turamurodov (1998 y). Biologik usul negizini asosan trixogramma (Trichogramma), brakon (Bracon), oltinko'z (Chrysopidas), xonqizi (Callninellidae) kabi foydali entomofaglar tashkil qiladi. (Trichogramma) ning 143 ta turi mavjud. O'zbekistonda uni 15 ta, Surxandaryo viloyatida esa 6 ta turi aniqlangan. 1928 yilda Amerikalik olimlar don kuyasi (sitatroga) kapalagini biolaboratoriyada yil davomida uzluksiz ko'paytirishga erishdi. SHundan so'ng uning kushandasi hisoblangan trixogrammani (Trichogramma) xam uzliksiz ko'payishi aniqlanib, u ko'plab maydonlarda ishlatila boshlandi. O'sha yili S.Flanderes tomonidan trixogramma qurg'oqchilikka chidamli minimum (T.minutum) turi topildi va ko'paytirilib paxtachilikda ko'sak qurtiga qarshi qo'llanila boshlandi.

O'zbekistonda 1961-68 yillarda Z.Odilov va S.Alimuxammedovlar entomofaglar to'g'risida ilmiy tekshirish ishlarini olib bordilar.

1971 yilga kelib Namangan viloyatida trixogrammani ko'paytirishga mo'ljallangan biolaboratoriyalar ishga tushirdi.

Surxandaryoda 6 tur trixogramma topildi. 2 tasi O'zbekiston, 4 tasi Surxandaryo faunasi uchun yangilik.

«Emangen» tuxumxo'rining bioekologiyasi o'rganildi. U yozda 32-34⁰S xaroratda xam 3,4-4 kun yashab xar biri 35-40 donadan tuxum qo'yishi, 16 ta avlod qoldirishi aniqlandi. Xona xarorati 32-34⁰S, nisbiy namlik 32% gacha tushirilib, kechasi 18-22⁰S xaroratda 3 yil mobaynida parvarishlandi. Natijada biologik samaradorlik 42,3-85 foizgacha oshdi.

Biologik usul uchun tavsiya etilgan foydali xashoratlar ichida 200 ga yaqin xashorat turkumi zararlaydigan trixogramma eng ko'p maydonlarda qo'llaniladi va yuqori samara beradi. Masalan, foydali xashorat 1972 yilda 500 gektar, 1980 yilda 1416,1 1986 yilda 2948,5, 1993 yilda 35,38,5 ming gektarni tashkil qildi.

Bekchanov X. (1998). Tunlam kapalaklari kechquruk uchadi. Keyingi yillarda karadrina va yovvoyi tunlam ko'proq zararlaydi.

Kan A. Kojevnikova A.G. (1990). G'o'zani asosiy zararkunandalari xamda ularning tabiiy kushandalarining rivojlanishi ustidan fenologik kuzatish yozda xar 5 kun, kuzda xar 10 kunda amalga oshirildi. G'o'za va kuzgi tunlam tuxumlari 100 kun g'o'zada 20 kundan oshganda 100 tup o'simlikda 6-12 qurt sanalganda gabrabrakon qo'yiladi, feramon tutqichlar ilinadi. Kuzgi tunlam 1 m² 0,4 tuxum topilganda gektariga 100-150 ming normada trixogramma tarqatilib, samaradorlik 40-48% ga etdi.

Nasrullaev D. (1978). 1973-77 yillarda Navoiy viloyatida 39,4 ming gektar maydonga dendrobatsilin bilan g'o'za tuplariga karadrina qurtiga qarshi ishlatilganda texnik samaradorlik 73-83% tashkil qildi.

Anna S.B. (1974) Ko'sak qurtini tashqi parazit Hrabracok hebetor Jay Brakonidlar oilasiga kiradi.

Abaikin Gript V.P. (1987). Trixogramma bilan tunlam kapalaklariga paxta, don va sabzavot ekinlaridagi zararkunandalarga qarshi 70-80% qo'llanilganda samara beradi.

Xo'jaev SH. (1992). G'o'za tunlami nomozshom vaqtida uchadigan tunlamlar oilasiga mansub kapalaklar turkumiga kiradi. Kapalagi katta tanasining uzunligi 12-20 mm. qanotini yozganda 30-40 mm keladi. Tanasi sarg'ish – qizil, ko'kish, kulrang bo'ladi. Oldingi juft qanotlarini o'rtasida bittadan yumaloq yuqorisida buyraksimon dog'i bor. G'umbakdan chiqqan kapalak to'la etilmagan qo'shimcha oziqlanadi va bitta avlod beradi, begona o'tda hamda makkajo'xorida bo'ladi. Ikkinchi avlodi esa g'o'zani zararlaydi. Oldingi qanotlari sarg'ish kulrang tusda bo'lib, ba'zan qizg'ish pushti yo ko'kish rangda tovlanib turadi. Oldingi qanotlari qoramtir rangli yoki yoyiq naqshi bor. Oldingi qanotlarini uchida sal

ichkariroqda unchalik ko'zga tashlanib turmaydigan qanotining o'rtasida ikkita dog'i bor, 1 to'q kulrang buyraksimon ko'rinishda, 2 kichikroq kulrang tusda dumaloq shaklda uni markazi qoramtir rangda bo'ladi. Keyingi qanotlari ochroq rangda bitta qora dog'i bor.

Tuxum g'umbak ko'rinishda qirrali oqimtir sariq. Voyaga etgan qurt 4sm keladi. Tanasi och yashildan qoramtirgacha nafas yo'llari orqali to'liqinsimon chiziqcha o'tgan. Tanasidagi burnigi so'ngacha tuklar bor. Birinchi yosh kala eni 0,25-30 mm, ikkinchi yosh 0,42-0,50 mm, uchinchi yosh 0,67-0,75 mm, to'rtinchi yosh 1-1,5 mm, beshinchi yosh 1,70-2,28 mm, oltinchi yosh 2,5-28,5 mm bo'ladi. G'umbagi to'q qo'ng'ir rangi 1,5-2 sm keyingi uchida bir-biriga yaqin joylashgan ikkita tikancha bor. 3-4 va 4,5 bo'lim bo'ladi.

Kuzda qaysi o'simlik bilan oziqlangan bo'lsa, o'sha erda 10-15 smda qishlaydi. Voyaga etgan kapalaklar aprel oxiri mayda uchib chiqadi. Tuproq t 20⁰ etgandan keyin 10 kundan keyin g'umbakdan chiqadi. t 23⁰ kapalaklar tuxum qo'ya boshlaydi. O'simlik poyalari shoxlari uchiga tuxum qo'yadi. Kapalak 400-600 tagacha tuxum qo'yadi. YOzda 2,5-4 kunda kech kuzda 4-12 kunda tuxumdan qurtlar chiqadi. qurt qaerda bo'lsa o'sha erda oziqlanadi, so'ng shona, gul va ko'saklarga o'tadi. Qurtlik 13-21 kun bo'ladi, g'umbak qisqa bo'ladi. Oxirgi 2-3 avlodlari xavflidir. Qurtlar kattaygandan so'ng o'simlikning pastki qismiga tusha boshlaydi. Tuproqni 5-15 sm chuqurligida g'umbakka aylanadi. Tuproqda ingichka ip yasab g'umbakka aylanadi va 11-15 kunda g'umbakdan kapalak uchib chiqib boshlaydi. Zararkunandaning kushandasi gabrabrakon, u 10 marta avlod beradi, kemiruvchi zararkunandaning tuxumlariga qarshi trixogramma samaralidir.

1. Qarshi kurash
2. YAxob suvi berish
3. CHekankani yoqib yuborish

Xushvaqtov Q., Xasanova Z. (1996). G'o'za shoxlash davrida g'o'za tunlamini birinchi avlodiga qarshi gektariga (60+80+60) qo'llanilgan tunlami 49% gacha tuxumni, brakon (500 donaga) 56% gacha qurtni kamaytirdi. G'o'za

shonasiga gullash va hosil to'kish davrida g'o'za tunlamini ikkinchi avlodga qarshi qo'llanilgan 10% s.k. talstor g'o'zani sonini kamaytirdi.

Xo'jaev SH.T. (1995). Ko'sak qurtiga qarshi biologik kurashni o'zi etmaydi. SHu bilan bir qatorda yangi istiqbolli dorilarni chet el dorilarini qo'llashni o'zi etmaydi. SHu bilan bir qatorda yangi istiqbolli dorilarni qo'llashni tavsiya qiladi. YUqorida keltirilgan adabiyotlar sharhidan ko'rinib turibdiki, g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashishda uyg'unlashgan usullarni qo'llash yaxshi samara berar ekan. Birgina kimyoviy yoki biologik usul bilan g'o'za o'simligini zararkunandalardan to'liq himoya qilib bo'lmaydi. CHunki kimyoviy qarshi kurashishda zararkunanda hasharotlar bilan bir qatorda ko'pgina foydali hasharotlar ham qirilib ketadi va tabiatdagi muvozanatga putur etadi. Faqat biologik usul bilan qarshi kurashishda esa hasharotlar miqdori iqtisodiy zarar keltirish chegarasidan bu usul yaxshi samara bermaydi. SHuning uchun uyg'unlashgan usulni g'o'za zararkunandalariga qarshi kurashda qo'llash hozirgi paytda juda ham aktual masalalardan biri hisoblanadi.

1.3. Poliz biti va unga qarshi kurash choralari

G'o'za (poliz) biti (*Aphis gossypii* Glov) teng qanotlilar turkumiga shiralar oilasiga kiradi. Qanotsiz urg'oisi shiraning rangi yozda sarg'ish-yashil yoki sariq kuzda to'q yashil. Shira naychalari qora. Tanasining uzunligi 1,2-2,3 mm. Mamalakatimizga 60⁰ shimoliy kenglikkacha kirib boradi. Ayniqsa, Paxtakor tumanlarda ko'p tarqalgan.

(S.M.Pospelov, M.V.Arsenyeva, G.S.Gruzdev-1978). Urg'ochi bit, uning lichinkalari begona o'tlar orasida qishlaydi. Ular baxorda 12⁰S haroratda ko'payadi.

Shiralarning ko'payishi faqat partinagenetik yo'l bilan sodir bo'ladi. Urg'ochi bit o'rtacha 40-50 dona ba'zan 80 donagacha lichenka tug'adi. Tug'ilgan lichinkalar qanotli shiralar may oyida g'o'za, poliz ekinlari (qovoq, tarvuz, bodring) kanakunjut, yer yong'oqi, kanop, kunjut va boshqa o'simliklarga o'tadi. Hosil bo'lgan qanotli shiralar, may oyida g'o'zalarga o'tib, yoz davomida zararkunanda g'o'zada 22 ta avlod beradi. Bundan tashqari baxor va kuzda begona o'tlarda 4-5 avlod berishi mumkin. (Sh.H.To'xtayev, K.Umarov, R.Yunusov-2006).

Shiralar nimjon o'simlikning urug'palla va o'sish nuqtasining orqa tomoniga joylashib olib, o'sish nuqtasini nobud qiladi. G'o'zaning nobud bo'lgan kurtak o'rnida ba'zan mustaqil 2 ta poya o'sib chiqadi. Shira urug'palladan chinbargga o'tadi, bu xildagi bargning cheti past tomon buriladi, yuzasi mayda burmachalar to'ri va burushmalar bilan qoplanadi. (Sh.H.To'xtayev, R.Yu.Yunusov-2006) zararlangan o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi kechikadi, ko'sakdagi tola sifati va og'irligi pasayadi. Zararkunandaning yopishqoq shirasimon moda bilan ifloslanishi paxtaning sifatini pasaytiradi. Bu moddadan saprofit zamburug'lar oziqlanadi, natijada tola qorayadi. Bu hodisa "Shilliq" nomi bilan ma'lum. Nam havoda saqlangan shilliq tola chiriydi. (Sh.H.To'xtayev-2007).

Poliz biti sovuqqa bir muncha chidamli bo'lib, -9 darajadadan tushganda harorat ham -15 darajadan tushganda ularning bir qismi, -20 darajadan

tushgandan esa sovuqdan batamom qirilib ketadi. G'o'za bitlarining 45 turdan ortiq yirtqichlari ayniqsa xonqizi qo'ng'izlari, oltinko'z, serfid pashshalari qayd qilingan bo'lib ular zararkunanda sonini baxor ayniqsa yoz davomida keskin kamaytirib turadi.

Mavsumda g'o'zada 1 dona ixtisoslashgan yirtqich hasharotga 20 dona (1:20) poliz biti voyaga yetganlari va lichinkalari to'g'ri kelsa bu yirtqich hasharotlar zararkunanda sonini keskin zararsiz darajagacha kamayadi. Bulardan tashqari poliz bitida pardaqanotli xasharotlaridan yaydoqchilar ham parazitlik qilib, zararkunanda miqdorini 30-35 % gacha kamaytiradi. (Sh.H.To'xtayev-2007).

Poliz bitlarining tanasi noksimon, 1,2-2 millimetr kattalikda, mo'ylovlari tanasidan kalta bo'ladi. Rivojlanish davri rangi o'zgaruvchan bo'lib, qaysi o'simlik Bilan oziqlansa, o'sha o'simlik rangiga qarab oladi. Aprel oyining ikkinchi o'n kunligida begona o'tlarda paydo bo'lib, shu yerda oziqlanib ko'payadi. Ayniqsa, kuz oylarida tez ko'payib, sezilarli darajada zarar keltiradi. (K.Nasriddinov – 1989).

Poliz bitlarini yo'qotish uchun begona o'tlarni yo'qotish, paxta dalalariga sabzavot va poliz ekinlaridan ma'lum masofada tutish, G'o'zada fosfamid E.K. ning 40 % li emulsiyasi (gektariga 1-2 kg) yoki kelval (gektariga 1-1,5 kg), antid E.K.ning 25 % li emulsiyasi (gektari 2 kg) purkash. Aholii yashaydigan punko'tlardan uzoq bo'lgan dalalarga karate gektariga 0,3-0,4 litirdan foydalanish mumkin. Poliz ekinlariga (gektariga 3 kg), texikaviy xlorofosning 80 % li eritmasi (gektariga 3 kg) purkash

1.4. G'o'za zararkunandalariga qarshi biologik va uyg'unlashgan kurash choralari

Yer yuzida bir necha 10 ming tur entomoakarifaglar bo'lib, birgina g'o'za zararkunandalari miqdorini kamaytirishda ularning yuzlab turlari ishtirok etadi. Konsinellidlar, xrizopidlar, siffidlar, hamemindlar, sesidomindlar oilalariga mansub 25 tur va afididlar oilasidagi parazidlar shular jumlasidandir. O'simlik bitlari bilan yirtqichlik va parazidlik yo'li orqali necha o'nlab tur entomafaglar oziqlanadi. Ulardan eng yuqori samadorlikka ega bo'lganlari xonqizi, oltinko'z, sirfid, yirtqich qandalalar va boshqalar.

Xonqizi (Coccinellidae)- koksineellidlar oilasiga mansub bo'lib, ular tabiatda xihoyatda keng tarqalgan, ulardan eng yirtqichlari yetti nuqtali va o'zgaruvchan xonqizlaridir. Xonqizining lichinka va qo'ng'izlari yirtqichlik qiladi. Yetti nuqtali xonqizi (Coccinella Septempunctata) – qo'ng'izlari yumaloq tanasining yuqori qismi qubballi, ostki-qismi yassi, qanotining osti qizil rangli. Qanoti sirtida 7 dona qora dog'i bor. Uning tuxumlari cho'zinchoq sarg'ish rangli, uzunligi 3 mm.

Urg'ochi xonqizi tuxumlarini 50 donagacha to'p-to'p qilib o'simlik bitlari kolloniyalari atrofidagi o'simliklar tanasiga qo'yadi, bir urg'ochi xonqizi sharoitga qarab 250-2000 ga qadar tuxum qo'yadi. Tuxumlardan chiqqan lichinkalar o'simlik bitlari bilan oziqlanadi. Lichinkalari ko'k rang bo'lib ularning tanasidagi bo'g'imlariga qizil, oq-qora dog'lar joylashgan. Ular tog'li xududlarda qo'ng'izlik davrida qishlaydi.

Erta baxorda (mart, aprel) havo xaroratining ko'tarilishi bilan bedazorlarda paydo bo'ladi, g'o'zaga may oyining daslabki kunlarida ba'zan esa, aprel o'rtalarida uchib o'tadi. Yirtqich g'umbagini o'simlik barglariga osongina yopishib qo'yadi. G'umbaklardan chiqqan qo'ng'izlar poliz bitlarini ko'plab iste'mol qiladi va 10-12 kundan so'ng ular juftlasha boshlaydi., shundan so'ng 2 kun o'tgach urg'ochilari tuxum qo'yishga kirishadi va 2-3 marta avlod beradi. Bitta xonqizi o'z hayotidavomida 3000 dan ortiq zararkunandani qiradi. Uning 4 yoshli lichinkalari o'ta xo'randa bo'ladi. (B.J.Jumanov-1989 yil)

O'zgaruvchan xonqizi (*Adonia variegata*)-tanasi cho'ziqroq yassi shaklda bo'lib, yelkasining oldi va yon tomonlarida oq-sariq va tananing o'rtasida ikkita sariq dog'i bor. Qanotining osti sarg'ish-qizil tusli unda o'zgarib turuvchi qora dog'lar bor. Qo'ng'izning boshi oq, ba'zan esa sariq rangli, tepasi qora xalqa bilan o'ralgan. Qo'ng'izning uzunligi 3-5 mm lichinkasi to'q kulrang, g'umbagi jigarrang, bargga yopishgan holda kuzatiladi. Tuxumi och-sariq rangda, urg'ochisi ularni 360 tacha to'da-to'da qilib tuxum qo'yadi.

Xonqizi bitlar, tripslar, o'rgimchakkana, kapalaklar qurti va boshqa tur yer ustki to'plamlarining tuxumlari va yosh qurtchalar bilan oziqlanadi. Yirtqich nihoyatda xo'ra bo'lib, uning bita lichinkasi o'z rivojlanishi davrida 300 dan ortiq, yeto'q qo'ng'izi esa 3000 dan ortiq o'simlik bitlariga qiron keltiradi.

O'zgaruvchan xonqizi bedazorlarda mart aprel va g'o'za dalalarida may iyundan boshlab uchraydi. O'simlik qoldiqlari, daraxt kovagi va po'stlog'i ostida qishlaydi. (S.K.Xusenov, A.Sh.Hamroyev va boshqalar-2006 yil) ma'lumotlariga ko'ra poliz bitining g'o'za maydonlariga tarqalishi sabablarining o'rganish ya'ni shuni ko'rsatadiki g'o'zani o'sish va rivojlanishi vigitasiyasi davrida belgilangan agrotexnik tadbirlarni to'liq bajarilmasligi, sug'orish me'yoriga amal qilmay dublet qilib sug'orish, namlikni dalada oshib g'o'zani g'ovlashlari, g'o'za bitlari tushgan mayda-mayda o'choqlrga e'tiborsizlik bilan qarash. Kultivaiya yordamida ular keng dalaga va qo'shni dalalarga kultivatsiya organlarini yuvmay ko'chirish, shuningdek fermerlar va bosh pudratchilar tomonidan g'o'zani o'sish rivojlanish davrida dalada o'sayotgan begona o'tlardan vaqtida tozalanmaganligi, nazorat ishlari o'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazilmaganligi, poliz maydonlarinining kengayishi, qo'za qator oralariga azotli o'g'itlarni normadan ko'p berilishi, g'o'za tup sonining kergidan ortiq bo'lishi va boshqa sabablar bilan poliz bitlari keng tarqaladi.

Oddiy oltinko'z (*Chrysapidae*)-oltinko'zlar oilasiga mansub hasharotlardan bo'lib, ular tabiatda juda ko'p keng tarqalgan. O'rta Osiyoda bu oiladagi yirtqichlarning 24 turi aniqlangan. O'zbekistonda esa 11 turi mavjud, ulardan yuqori samaradorlikka ega bo'lganlaridan biri oddiy oltinko'zdir.

Oddiy oltinko'z (Chrysapidae corea)- imagosi 10-12 mm uzunlikka ega bo'lib, qanotlari yozilganda 22-29 mm ga boradi. Yozda tanasining rangi sarg'ish yashil tusdan to to'q yashil tusgacha bo'lishi mumkin.

Kuzda qishki uyquga ketish oldidan qo'ng'ir tusdan pushti ranggacha bo'ladi, tanasi butkul to'qlar bilan qoplangan, peshonasi yassi bo'ladi. Yirtqich lichinkasi gadasining oldingi a orqa qismi toraygan bo'lib, tez yugurishga moslashgan. Ko'krak qismiga oyoqlari joylashgan. Lichinkaning rangi oq yashildan sarg'ish ranggacha boradi. Og'iz apparati kemiruvchi hisoblanib, undan uzunchoq, o'roqsimon egilgan yuqori jag'lar mavjud. Pastki va yuqori jag'lari bir-biriga jipslashib naycha hosil qiladi. Bosh qismida ikkita cho'ziq qora hoshiyasi bor bo'lib, biri sarg'ish va ikkinchisi kulrang tana markazidan o'tuvchi uchinchi hoshiya bosh qon tomiri hisblanadi. G'umbagi erkin 8-10 mm uzunlikda, yashil tusli, oq pillaga o'ralgan bo'ladi. Oziqlanib bo'lgan 3 yoshdagi lichinkalar bir necha kun o'tgach oxirgi marta po'st tashlaydi va g'umbakka aylanadi. G'umbak rivojlanishi so'ngida harakatchan holiga keladi va pillani yuqori qismini kemirib qopqoqchasimon teshikcha ochadi va undan tashqariga chiqadi. O'ziga qulay joy topib, o'sha yerda tulaydi, provardida yeto'q hasharot uchib chiqadi. Oltinko'z imagosi ba'zan esa pila ichidagi g'umbak holida kesaklar ostida, o'simlik qoldiqlari orasida, daraxt va bino yoriqlarida qishlaydi.

Oltinko'z imagosi qishlashdan mart oyining 3-o'n kunligida chiqadi. Bunda havo harorati 10-12⁰s bo'ladi. Bu davrda ba'zi o'simliklar (qoqi o't, jag'-jag' va boshqalarning) gullashiga mos keladi. Urg'ochi oltinko'z bu davrda o'simlik nektori va bitlar chiqishlari bilan qo'shimcha ravishda oziqlanib, bir oy davomida avval gullaydigan ekinlarga, keyinchalik bedaga, g'alla dukkakli ekinlar va begona o'tlarga tuxum qo'yadi. G'o'za dalalariga ekinlar 4-5 chin barg chiqargan davrida (may oyining ikkinchi va uchinchi o'n kunligida) tuxum qo'yadi, bu davrda g'o'za dalalarida so'ruvchi hasharotlar to'da paydo bo'ladi.

Tuxumlar o'simlik barglari ostiga yoki sirtiga bittadan goho bir nechtdan to'p-to'p qilib qo'yadi. Tuxum qo'yish bir tekisda kechadi. Bita urg'ochi oltinko'zning 30-45 kunlik yashash davrida bir kunda 5-30 tagacha tuxum qo'yadi,

jami 500-750 donagacha boradi. Embrionning rivojlanish davrida ob-havo sharoitiga qarab 4-15 kundur. Tuxumdan chiqqan lichinkalar 7-12 kun davomida rivojlandi. Tuxum asosan o'simlik tanasining turli qismlari va tuproq sitriga yuqori namlik bo'lgan joylarga qo'yishadi.

Urg'ochi oltinko'z tuxum qo'yish jarayonida o'simlik nektarlari bilan qo'shimcha oziqlanishdan tashqari tunlamlar tuxumlari va qurtlarning gemolimfasi bilan ham oziqlanadi. Bitta entomofagga 20 ta bit to'g'ri kelishi kerak (Sh.S.Muhammadaliyev, B.A.Sulaymonov, M.I.Rashidov-2002).

Tuxumdan chiqqan oltinko'z lichinkalari dastlabki ikki kun davomida turli mayda hasharotlar bilan oziqlanadi, bular jumlasiga o'simlik bitlari, tripslar va ularning tuxumlari kiradi. Hayotining uchinchi kunida lichinkalar tulaydi va 2-yoshga o'tadi. Bunda ularning xo'raligi ortadi, keyingi ikki kun davomida ularning xo'raligi yanada kuchayadi va ularning bir kungi iste'moli uchun 35 ta hasharot kerak bo'ladi. Shundan so'ng ular tulla 3-yoshga o'tadi.

Bu davrda lichinkalar kuniga 250-300 donagacha bitlar va boshqa tur hasharotlarni iste'mol qiladi. Ular asosan tunda, kechqurun va erta bilan oziqlanadi, kunduz kunlari, yuqori issiq haroratli vaqtlarda dam oladi. Hayotning 8-kunida lichinkalar g'umbaklanishi uchun joy axtarar boshlaydi.

Oltinko'z 4-5 avlod bo'ladi. Bir avlodining hayoti 26-30 kun, harorati past bo'lganda hatto 80 kunga qadar boradi. Bu hasharot polifagdir, ya'ni uning lichinkalari o'simlik bitlari, koksidlari, shuningdek 76 tur hasharotning tuxumlari va yosh lichinkalari, kanalar bilan oziqlanadi. Harorati va namligining o'zgarishiga qarab, yirtqichning rivojlanish davri turlicha bo'lishi kuzatilgan.

Masalan: Hasharotning rivojlanishi uchun havo harorati 19-21 °S va namligi 30-37 gacha bo'lganda 50-55 kun zarur bo'lsa, harorat 37-40 °S havo namligi 30-40 % bo'lganda bir avlodning rivojlanishi uchun 15-19 kun kifoya qilgan. Oltinko'zlar oziqa topish maqsadida doimo turli ekinzorlarga ko'chib yuradilar, ular erta bahorda bedazor, arpa, bug'doyzorlarda, begona o'tlarda, tut va boshqa mevali daraxtlarda ko'plab uchraydi. (fermer xo'jalik raxbarligi-2005) ma'lumotlarga qaraganda Buxoro viloyatida 2005 yilda poliz shirasi ko'payib

ketib, qancha ko'p kimyoviy preparatlar ishlatilsa, shunga ularning soni kamayish o'rniga ko'payib ketgan. Eng ko'paygan davri iyul va avgust oylariga to'g'ri kelgan. Shu bashoratlarda haqida S.Alimuhammedov, Z.K.Odilov va boshqalar, A.Sh.Hamroyev, B.A.Hasanov, R.O.Ochilov va boshqalar-1999yil). Bularning ma'lumotlarida kartoshka, g'alla va sholi zararkunandalarining entomofaglar bilanqirib tashlash +arzon va ekologik jixatidan samaraliroq bo'ldi deb ta'kilaganlar. (F.Sh.To'xtayeva-2006yil) ma'lumotlarga qaraganda Buxoro viloyati sharoitida 2005-2006 yillar davomida 8 ming gektar yer poliz shirasi bilan zararlangan. O'rtacha hosildorlik 14-17 s/ga tashkil etdi, demak poliz shirasi yoppasiga tushgan yillari hosildorlikni ya'ni paxta hosilini 45-50 % gacha kamaytirishi aynan xaqiqatdir bundan tashqari qilgan 50 % hosil ham sanoatbop paxta bo'lib chiqmay tolasi yaroqsiz holga olib keladi.

(V.Ye.Lixovidov, N.A.Sklyarov va boshqalar-1983) Zararkunandalarga qarshi mikrobiologik preparatlarni qo'llaganda, kimyoviy dorilarga qaraganda juda ko'p foydali tomonlari bor. Mikrobiologik preparatlar zararkunandalarni tanlab, o'ldiradi. Bu preparatlarning madaniy o'simliklarning o'suv fazasiga qarab qo'llaniladi, bu usul atrof muxitni ifloslamaydi. Ekologik toza hamda biologik samaradorligi ancha yuqori, faqatgina preparatning qo'llash sharoiti, texnologiyasi va boshqa asosiy shartlarni inobatga olish zarurdir.

Afisidlar (Aphidae)-o'simlik bitlari parazitidir. Ular mayda, qora rangli (2-3 mm.li) hasharotdir. Qanotlari yoyilganda 3-4 mm.ga boradi, mo'ylovlari ko'zga yaqqol tashlanadi, qorni poyasimon. Ular o'z tuxumini o'simlik bitlari tanasiga bittadan qo'yadi. Tuxumidan chiqqan parazit bitlar lichinkalari bitlarn tanasini butkul yeb tugallaydi. Zararlangan bitlar zararlanmaganlaridan osongina farqlanadi. Zararlangan bitlar shishib ketadi, ularning rangi sarg'ayadi, harakatlanishi va oziqlanishidan to'xtaydi qattiq bo'lib qoladi. Bunday holat adabiyotlarda "Mumiyolangan bitlar" deb yuritiladi. Ular tez nobud bo'ladi. Bunday "Mumiyolangan bitlar" ni o'simlik barglarida ko'plab uchratish mumkin. Parazit o'zining yashash davrini to'la tugallagach, mumiyoni teshib tashqariga

uchib chiqadi va yana boshqa bitlarni zararlaydi. Ular tez urchiydi va rivojlanadi. Afisidlarning ikki turi sermahsulligi bilan katta ahamiyatga egadir.

Sirfid (Syzphidae) pashshalari vizillovchi pashshalar – ushbu oilaga mansub 9 tur yirtqich pashshalar ham bitlarning kushandalari bo'lib, hisoblandi. Ularning lichinkalari yirtqichlik qiladi. Sirfid pashshalari bitlardan tashqari o'rgimchakkana, tripslar va turli hasharotlar tuxumlari bilan oziqlanadi. Sirfid pashshalarining imogalari ari yoki asalarilarga juda o'xshashdir. Ularning tuxumlari oq rangli bo'lib, ingichka yo'llari bor, shakli cho'ziq ohaksimon lichinkalari chuvalchangsimon, oyoqlari bo'lmaydi, tanasining old qismi toraygan, yassi bo'lib, mayda to'qchalar, tirnoqsimon burutchalar bilan qoplangan.

Sirfid pashshalarini katta yoshdagilarini lichinkasi xo'ra bo'lib, o'z hayoti davrida 500-2000 donagacha bitlarni qirib bitiradi. Ularning urg'ochisi 12-16 kun, erkagi 6-8 kun yashaydi. Sirfid pashshalari yil davomida 4-5 marta avlod beradi. Bitlarning yana ashaddiy dushmani yirtqich qandala Nabiyo va Kumush rang pashshalari bo'lib, bular ham poliz bitlariga qiron keltiradi. Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki biolaboratoriyalarda ko'paytiriladigan entomofaglar poliz bitiga ashaddiy qiron keltirib, madaniy ekinlarning zararkunandalardan himoya qiladi.

2. TADQIQOT METODIKASI, OB'EKTI VA O'TKAZISH SHAROITI

2.1. Tajriba o'tkazish joyi va uning iqlim sharoiti

Xatirchi tumani iqlimida fasllar va kecha-kunduz o'rtasida kuchli kontinentallik mavjud. YOg'ingarchilik asosan kuz, qish va bahor oylarida yuz beradi. O'suv davri davomida yog'ingarchilik deyarli kuzatilmaydi. YOz faslining iyul oyida eng issiq, qishda - yanvar oyida eng sovuq kunlar bo'lishi kuzatiladi. Bu esa ekinlarni etishtirishda ularni albatta sug'orish kerakligini ko'rsatadi. Iqlim sharoiti qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olishga imkon beradi. Havo haroratining minimumi yanvarga, maksimumi iyul oyiga to'g'ri keladi. Hududning yozi issiq va quruq hamda qishi qisqa, lekin juda sovuqligi bilan tavsiflanadi. Havoning o'rtacha yillik harorati ko'p yillik ma'lumotlar bo'yicha $15,2^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etadi. Eng issiq oyning o'rtacha harorati $27,1-29,3^{\circ}\text{S}$, eng sovuq oydagi o'rtacha harorati $-1,6 + 2,6^{\circ}\text{S}$ atrofida bo'ladi. Havoning o'rtacha harorati 2011yilda $14,7^{\circ}\text{S}$, 2012 yilda $15,1^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etgan.

Ekin ekish uchun kerak bo'ladigan $12-14^{\circ}\text{S}$ harorat aprel oyining boshida kuzatildi. Ekin etishtirishda vegetatsiya davridagi havoning harorati muhim rol o'ynaydi. Havoning o'rtacha nisbiy namligi kuz, qish va bahor oylarida yuqori bo'ldi. May-sentyabr oylari bu ko'rsatkichning minimumi kuzatiladi. Demak, ekin o'suv davrida havo nisbiy namligi optimaldan past bo'ladi. 2011-2012 yillarda havoning o'rtacha nisbiy namligi tegishlicha 60,4; 60,8; 62,0% ni tashkil etdi. (1 - jadval).

1-jadval

**Tajriba o'tkazilgan joyning iqlim sharoitlari
(Navoiy gidrometeorologiya boshqarmasi ma'lumotlari)**

Havo harorati, °S													
Yil	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	O'rtacha yillik harorat °S
2014	1,9	0,9	12,0	15,4	18,8	25,6	29,3	24,1	22,4	14,8	8,0	5,5	15,2
Atmosfera yog'inlari, mm													
Yil	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	Yillik yog'in yig'indisi, mm
2014	41,9	25,0	64,5	18,8	32,3	8,4	-	15,4	-	4,9	33,0	18,2	262,4
Havoning nisbiy namligi, %													
Yil	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr	O'rtacha yillik havo namligi, %
2014	82	80	67	57	58	46	40	51	45	53	74	72	60,4

2.2. Tajriba sxemasi va metodikasi

Tajriba Navoiy viloyati, Xatirchi tumani, «Buyuk Turon M» fermer xo'jaligida quyidagi sxema asosida olib borildi.

Tajriba sxemasi

T/r	Variantlar	Ko'rsatkichlar
1	Nazorat	G'o'za shirasiga qarshi kurash chorasi qo'llanilmadi
2	Standart	G'o'za shirasiga qarshi kurashda, Sumi-alfa 5% li e.k. 0,5 l/ga qo'llash
3	Tajriba	G'o'za shirasiga qarshi kurashda Konfidor 20% li s.e.k.(imidokloprit)

Tajribamiz 3 ta variant, 4 ta qaytariqdan iborat bo'lib, barchasi bir yarusda joylashgan.

Tajriba payklari uzunligi 100 metr bo'lib, eni 7,2 metrni tashkil etdi. Tajribaning umumiy maydoni 8640 m² ni tashkil etdi.

Birinchi nazorat variantimizda g'o'za shirasiga qarshi kurash chorasi qo'llanilmadi.

Ikkinchi variantimizda g'o'za shirasiga qarshi Sumi-alfa 5% li e.k. 0,5 l/ga qo'llanildi.

Uchinchi tajriba variantimizda g'o'za shirasiga qarshi Konfidor 20% li s.e.k.qo'llanildi.

2.3.Tajribada ekilgan g'ozaning "AN-Bayavut-2" navi tavsifi

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining O'simliklar biologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida S.Sodiqov va boshqalar tomonidan yaratilgan. Tezpishar nav. O'suv davri 129-130 kun. Ko'sagidgi paxta vazni 6,5-7,0 gramm. Tola chiqishi 35-36%, tola uzunligi 34-35 mm, tolaning nisbiy uzilish kuchi 26,1-26,7 gk teks. Tolasi V tip. Hosildorligi 40,8 s/ga.

2.4. Tajribada g'oz o'stirish agrotexnologiyasi

G'ozaning optimal o'sishi, rivojlanishi va yuqori hosildorligida texnologik jarayonlarning o'zni juda yuqori . Bu tadbirlarni navtalabidan tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib amalga oshirish kerak. Umuman olganda dala tajribasida paxta etishtirish texnologiyasi xo'jalikda umum qabul qilingan agrotexnikaga o'xshash. Ular qo'yidagilardan iborat.

Erga asosiy ishlov berish. SHudgor tuproqni yumshatib uni unumdorligini oshiradi va buning natijasida g'ozni hosildorligi yuqori bo'ladi. Dala tajribasida shudgor "MAGNUM" traktoriga takilgan PYA-4-35 plugi bilan 30-35 sm chuqurlikda o'tkaziladi. SHudgor qilishdan oldin daladagi g'ozapoya o'rilib daladan olib chiqib ketiladi. SHudgor shu holatda kuz va qish oylari qoldi va uziga yogingarchilik suvlarini singdirib oladi.

Ekishdan oldingi ishlov. Erta bahorda shudgor bir necha marta "zig-zag" boronasi bilan barana qilinadi. Buning natijasida qish va bahor fasillarida tuplangan nam tuproqda saqlanib qoladi.

Erni ekishga tayyorlash. Ekishdan bevosita oldin er chizil qilinadi, undan keyin baralanash o'tkazildi va uning ketidan molalash amalga oshirildi. Molalash kesakchalarni maydalab erni tekislaydi va zichlashtiradi. Bu esa chigitni uinb chiqishiga yaqin zamin yaratadi.

Ekish. CHigit STX-4b Ekish agregati bilan ekildi. Ekish chuqurligi 5-6 sm. G'oz navi Okdaryo -6, ekish normasi 40 kg ga.

Qatorlar orasiga ishlov berish. G'oz qatori orasiga birinchi ishlov berish o'simlikning 2-3 kun barg chiqarish farasida amalga oshirildi. Kultivasiya KRX-4 kultivatori yordamida 6-8 sm chuqurlikda o'tkazildi. Kultivasiya o'simlik yonidan 8-10 sm uzoqlikda o'tkazildi. SHundan keyin har suvdan 10-12; 12-14 va 14-16 sm chuqurlikda kultivasiya o'tkazildi. Har sug'orishdan oldin usha kultivator yordamida suv qo'yish uchun juya olindi. Birinchi sug'orish uchun juyak chuqurligi 10-12 sm, keyingi sug'orishlar uchun 14-16sm ni tashkil etdi.

Sug'orish. Tajribida g'o'za besh marta sug'oriladi. Boshlangich fazalarda sug'orish normasi kam bo'lib keyingi fazalarning kirishi bilan sug'orish meyori ortdi. Birinchi sug'orish 700-800 m³ meyorida o'tkazildi. Generativ fazalarning kirishi bilan sug'orish meyori ortdi va 900-1000 m³ ni tashkil etdi. Yillik sug'orish meyori 4100-4400 m³ ga sug'orish juyaklari orqali amalga oshirildi.

O'g'itlash. O'g'itlash dala tajribasi seximasi bo'yicha amaldga oshirildi. Mineral o'g'itlar shudgor bilan, ekindan oldin va o'suv davrida qo'llanildi. Mineral o'g'itlardan ammiakli selitra, ammosfos va kaliy xlorid qo'llanildi. O'simliklar kultivator yordamida oziqlantirilgandan keyin sug'orish o'tkazildi. Organik o'g'itlar shudgor ostiga solinadi.

Begona o'tlarga qarshi kurash. Dala tajribasidagi begona o'tlar kultivator yordamida yuqotildi. Qolgan begona o'tlar esa ketmon bilan chopish yuli bilan yuqotildi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash choralari. Ildiz chirish, gommoz kasaliklariga qarshi kurashish maqsadida ekishdan oldin chigitga kimyoviy moddalar yordamida ishlov berildi. Bundan tashqari shirinchaga qarshi pestitsidlar motorli qo'l apparati yordamida qo'llanildi.

CHilpish. Oziq moddalarni vegetativ organlar uchun emas balki generativ organlarga sarflanishi uchun g'o'zani chilpish kerak buladi. Tajribada chilpish ikki marta o'tkazildi. Bunda o'simlik bosh poyasining o'sish nuqtasi chilpib tashlandi. CHilpish g'o'zada 14-15 ta simpodiol shox hosil bo'lganda o'tkazildi.

Defolyasiya. Dalani paxta yig'im terimiga tayorlash uchun va ko'saklar ochilishini tezlashtirish uchun defolyasiya o'tkaziladi. Kimyoviy eritma OVX-14 purkagich yordamida sepildi.

Terim. Dala tajribasida paxta ko'lda terildi. Buning uchun oldin himoya qatorlaridagi va zonalaridagi paxta yig'ishtirilib olinadi. Keyin esa har bir paykalning hisob-kitob qatorlaridagi paxta alohida-alohida yig'ishtirildi.

Dala tajribasida o'tkazilgan asosiy texnologik tadbirlar

№	Tajribadagi texnologik tadbirlarning turi	Muddat	Qo'l mehnati yoki texnika	Sifat ko'rsatgichlari (ishlov chuqurligi, ekin meyori)
1	Dalani paykallarga bo'lish	15.11.20013.	Qo'lda	
2	Asosiy o'g'itlar	17.11.20013.	Qo'lda	70%
3	Kuzgi shudgor	21.11.2013.	Magnum Pya-4-35	30-35 sm chuqurlikka
4	Boronalash	24.03.2014	Borona Zig-zag	6-8 sm chuqurlikka
6	CHizellash	29.03.2014.	KRX-4	12-14 sm chuqurlikka
7	Dalani ekishga tayyorlash	15.04.2014.	Kultvator KRX-4 Barona va mola	CHezillash, molalali baronalash, 14-16 sm
8	Ekish	16.04.2014.	STX-4b	5-6 sm chuqurlikka ekish meyori 50 kg
9	Qator orasiga ishlov berish	10.05,5.06,18.06, 15.07,21.07,11.08, 17.08,28.08	KRX-4	
10	Sug'orish	18.05.,13.06,20.07, 17.08,28.08	Qo'lda	Juyak usulida sug'orish meyori 800-1000 m/ga
11	Oziqlantirish	10.05,18.06	KRX-4	12-14 sm chuqurlikka
12	YAgonalash	09.05.	Qo'lda	1-pogona metrda 10-12 ta o'simlik koldirildi
13	CHilpish	15.08.	Qo'lda	G'o'zada 14-15 ta simpodial shox hosil bo'lganda chilpish o'tkazildi

2.5. G'oz shirasi biologiyasi

G'oz o'simlik shiralarining bir necha turi zarar etkazadi. Bular orasida beda yoki poliz shirasi, g'oz yoki poliz shirasi va katta g'oz shirasi xavflidir.

O'simlik shiralari barglarning sharbatini so'radi, buning oqibatida poya va ildizlaridagi zaxira uglevodlar miqdori keskin kamayib ketadi. Qattiq zararlangan barglarning shakli o'zgaradi va bujmayib qoladi. Bunday o'simliklar juda sust o'sadi. Zararlangan o'simliklardan hosil 28-30 % gacha kamayishi mumkin.

O'simlik shirasi Homoptera turkumiga Aphiococ oilasiga mansub, so'ruvchi modda xashorat bo'lib, chala o'zgarib rivojlanadi. O'simlik shirasi shakli jixatdan bir necha xil bo'ladi, chunonchi o'rtasida yirik tug'uvchi qanotsiz urg'ochilari, tuxum qo'yadigan qanotsiz urg'ochilari, qanotli erkaklari bor.

SHiralar xaroratga qarab 2-3 kun rivojlanadi. Mavsum mobaynida 20-25 ta beda biti 12-15 tagacha avlod beradi. Urg'ochilari esa 18 kun yashaydi va 150 tagacha lichinka tug'adi. Lichinkalar rivojlanib 4 marta terlaydi va 5 yoshni kechiradi.

Oz-ozdan yog'ib yog'in tushib turadigan sernam – ko'klash xavosi o'simlik bitlarining rivojlanib borishiga yordam beradi. Ammo shovvillab yoqqan yomg'irlar ularni yo'qotadi. Ob-havosi quruq, yuqori xaroratli tumanlarda o'simlik biti rivojlanmaydi. YAshash sharoiti yomonlashganda, oziq etishmaganda shuningdek asosiy va oziqabop o'simliklar almashganda bitlar joydan-joyga ko'chadi. YAshash joyi almashganida urug'langan tuxumlar asosiy o'simliklarda qishlaydi. Ulardan biri ikkita shiralar avlodi rivojlanadi. 2-3 avlodlarda qanotsizlar orasida tirik tug'uvchi urg'ochilari paydo bo'lib, ular oraliq ekinlarga uchib o'tib, bir qancha shira avlodlarini bera boshlaydi.

Bitlarni yo'qotadigan fitofag yirtqichlardan va parazitlardan 46 ta turi ro'yxatga olingan, bular juda katta axamiyatga ega. Ular ba'zan shiralarning sonini 90 % gacha yo'qotmaydi.

Beda va akatsiya shirasi *Aphis Crucevora* Koch xammaxo'r zararkunanda bo'lib, O'rta Osiyoda keng tarqalgan akatsiya shirasi g'o'zadan boshqa beda, oq akatsiya, er yong'oq, esparset, no'xat shuningdek, poliz ekinlariga jami 50 tur o'simlikka zarar etkazadi.

O'simlik shirasi g'o'zaga may, iyul oylarida ko'p zarar etkazadi. U g'o'zaning o'sishi va rivojlanishini susaytiradi. Tirik tug'uvchi urg'ochisining tanasi yaltiroq qora bo'lib, bo'yi 1,3-2,2 mm gacha boradi, mo'ylovi tanasining bo'yidan kaltaroq, sariq tusli qoramtir qo'ng'ir yo'llari bo'ladi. Tuxum qo'yadigan urg'ochilari to'q tusli bo'lib, xamma sigmentlarida qop-qora bo'ladi.

Akatsiya shirasi bedada yoki akatsiyada tuxum fazasida qishlaydi, erta ko'klashda bedapoyada bo'lgan shira to'dalarini ko'rish mumkin.

Beda shirasi beda dag'allashguncha bedada rivojlanadi, keyinchalik boshqa o'simliklarga o'tadi. Beda shirasi g'o'zadan bir oy atrofida yashaydi. Ammo o'sha oz vaqtda ham ular g'o'zaga kuchli zarar keltirishi mumkin. Qanoti paydo bo'lgan shiralar bedapoyaga uchib o'tadi va kech kuzgacha o'simlikning ildiz bo'g'zida bo'ladi. Ammo oziqlanish sharoiti noqulay bo'lganligi uchun ko'p irg'iy olmaydi.

Poliz shirasi *Aplig gossipi bloia* xammaxo'r zararkunanda bo'lib O'rta Osiyoda keng tarqalgan. O'simliklarning 46 ta turiga shikast etkazadi, ko'proq g'o'za, poliz ekinlari, er yong'oq, kanop, kunjut va xakozolarga zarar etkazadi.

